

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

NURIMOVA DIYORA QURBON QIZI

**LIRIK DISKURS VA UNING SOTSIOPRAGMATIK TALQINI
(Usmon Azim va Muhammad Yusuf asarlari misolida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Buxoro– 2026

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
Mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Nurimova Diyora Qurbon qizi

Lirik diskurs va uning sotsiopragmatik talqini (Usmon Azim va Muhammad Yusuf asarlari misolida).....3

Нуримова Диёра Курбановна

Лирический дискурс и его социопрагматическая интерпретация (на примере произведений Усмана Азима и Мухаммада Юсуфа)23

Nurimova Diyora Kurban kizi

Lyrical discourse and its sociopragmatic interpretation (on the example of the works of Usman Azim and Muhammad Yusuf).....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

NURIMOVA DIYORA QURBON QIZI

**LIRIK DISKURS VA UNING SOTSIOPRAGMATIK TALQINI
(Usmon Azim va Muhammad Yusuf asarlari misolida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Buxoro– 2026

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2023.3.PhD/Fil3715 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Zaripov Botir Po'latovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 18-avgust soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (963-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 -yil "_____" da tarqatildi.

(2026-yil "_____" dagi _____ -raqamli reyestr bayonnomasi)



B.E.Kilichev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.Y.Xojiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

G.I.Toirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida lirik diskursni kognitiv, pragmatik va sotsiopragmatik yondashuvlar asosida baholash, badiiy matnning kommunikativ imkoniyatlari hamda verbal va noverbal vositalarning funksional xususiyatlarini aniqlashga katta ahamiyat qaratilmoqda. Lirik diskursning ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog‘liqligi, adresant va adresat o‘rtasidagi sotsiopragmatik munosabatlar, pragmatik ma’no hosil qiluvchi lingvistik vositalar hamda ularning milliy-madaniy xususiyatlarini kompleks yoritish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat lirik diskursning sotsiopragmatik modelini ishlab chiqish, uning kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlarini hamda verbal va noverbal vositalarning diskursiv-pragmatik funksiyalarini zamonaviy lingvistik yondashuvlar dolzarb amaliy vazifa sifatida belgilaydi.

Dunyo tilshunosligida lisoniy birliklarni shaxs omili bilan uyg‘unlikda zamonaviy yondashuvlar asosida tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar tobora kengayib bormoqda. Jumladan, voqelik hodisalarini pragmatik va lingvopoetik jihatdan o‘rganish, til birliklarini diskursiv tahlil qilish hamda matnning sotsiopragmatik xususiyatlarini tadqiq etish ustuvor ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylangan. Zero, lirik diskursni kognitiv-pragmatik va sotsiopragmatik nuqtayi nazardan talqin qilish, uning tarkibini lirik matnlar asosida fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, semantik-stilistik jihatdan yoritish muammoning nazariy asoslarini yanada takomillashtirish zaruratini belgilaydi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy sohadagi islohotlar samaradorligini oshirish davlat tilining ilmiy salohiyatini yuksaltirish va zamonaviy lingvistik tadqiqotlarni rivojlantirishni taqozo etmoqda. Zotan, “...har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak¹”. Shu nuqtayi nazardan, lirik diskursni kommunikativ akt sifatida uning yaratilishi, idrok etilishi va ijtimoiy-madaniy kontekstdagi funksiyalarini sotsiopragmatik yondashuv asosida kompleks tahlil qilish, verbal hamda noverbal vositalarning diskursiv-pragmatik imkoniyatlarini aniqlash va o‘zbek lirikasining milliy-madaniy hamda kommunikativ xususiyatlarini ilmiy asoslash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlar, shuningdek, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish boshqarish va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2019-yil 22-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5850-son Farmoni. <https://lex.uz/>

molialashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 4-oktabrdagi PQ4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida" qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida "diskurs" tushunchasining fanga kirishi XX asrning 50-yillariga to'g'ri keladi. Manbalarga ko'ra, bu atamani dastlab amerikalik tilshunos Zellig Xarris qo'llagan². Keyinchalik S.Mills, I.Parker, E.Burman kabi olimlar tomonidan ijtimoiy fanlararo tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan³. Diskursiv tahlilning an'anaviy va tanqidiy turlari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlarni E.I.Sheygal, T.E.Yanko, T.A.van Deyk, A.A.Kibrik, V.I.Karasik, M.L.Makarov, L.Fillips, M.Yorgensen, M.Fuko kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kuzatish mumkin⁴. XX asr 70-yillari o'rtalaridan boshlab nutqni diskursiv tahlil qilish amaliyoti rus tilshunoslari N.D.Arutyunova, V.E.Chernyavskiy, Y.S.Stepanov, V.Z.Demyankov, shuningdek, Yevropa tilshunoslari H.Haberland, M.Fuko olib borgan tadqiqot ishlarida uchraydi⁵.

Diskursiv tahlilda muhim vazifalardan biri diskurs qurilishini o'rganish hisoblanadi. Rus tilshunosi I.A.Figurovskiy tadqiqotlarida diskurs tushunchasiga "murakkab sintaktik mohiyatli birlik" sifatida qaraladi⁶.

² Harris Z.S. Analyse du discours// Languages. – Pennsylvanie, 1969. – №13. – P. 8-45.

³ Mills S. Discourse. – London, 1997. –188 p.; Parker I., Burman E. Against discursive imperialism, empiricism and construction: thuty two problems with discourse analysis // Discourse Analytic Research Repertoires and Readings of Texts in Actions. – London, 1993. – 18 p.

⁴ Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса. – Москва; Волгоград, 2000. – 368 с.; Янко Т.Е. Обращения в структуре дискурса // Логические анализ языка. Моно-, диа-, полилог в разных культурах. – Москва, 2010. – 13 с.; Dijk van T.A. Ideology and Discourse: A Multedisciplinary Introduction. – Barcelona, 2000. – 95 p.; Кибрик А.А. Анализ дискурса в когнитивной перспективе: Дисс... д-ра филол наук. – Москва, 2003. – 90 с.; Карасик В.И. О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс. – Волгоград, 2000. – 228 с.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград, 2002. – 331 с.; Макаров М. Л. Основы теории дискурса. – Москва, 2003. – 176 с.; Филлипс Л. Дж., Йоргенсен М.В. Дискурс-анализ. Теория и метод. – Харьков, 2008. – 252 с.; Фуко М. Дискурс и истина.–Минск, 2006. – 152 с.

⁵ Арутюнова Н.Д. Дискурс. В кн.: Лингвистическая энциклопедия. – Москва, 1990. – С. 136-137.; Чернявская В.Е. От анализа текста к анализу дискурса: немецкая школа дискурсивного анализа // Филологические науки, 2003. – №3. – С. 68-76.; Степанов Ю.С. Альтернативный мир, дискурс, факт и принципы причинности // Язык и наука конца XX века. – Москва, 1995. – С. 35-73.; Демьянков В.З. Функционализм в зарубежной лингвистике конце XX века. В кн.: Дискурс, речь, речевая деятельность: функциональные и структурные аспекты: Сб. Образов. – Москва: РАН ИНИОН, 2000. – С. 26-136.; Haberland H. Text, discourse, discours: the latest report from the Terminology Vise Squad // Journal of pragmatics, 1999. –№31.; Фуко М. Дискурс и истина. – Минск, 2006. – 152 с.

⁶ Фигуровский И. А. Основний направления в исследованиях синтаксиса связного текста// Лингвистика текста. Материалы научной конф. Ч.II. – Москва: МПТИИЯ им. М. Тореца, 1974. – С. 108-115.

O'zbek tilshunosligida diskurs bo'yicha maxsus tadqiqotlar, Sh.Safarov tomonidan amalga oshirilgan⁷. Sh.Safarov o'z ishlarida matn hamda diskurs muammosi haqida quyidagicha mulohaza yuritadi: "Agarda matn va diskursning har ikkalasi ham lisoniy faoliyatining natijasi bo'lsa, ularni faqatgina zohiriy – formal ko'rsatkichga asosan "og'zaki" va "yozma" sifatlari bilan farqlash imkoniga gumonim bor. Xuddi shuningdek, ularning birini moddiy ko'rinishli hodisa, ikkinchisini bu xususiyatdan holi ko'rinishda tasavvur qilish qiyin masala"⁸. Tilshunos L.Raupova "Diskursiv tahlilda polipredikativ birliklar" mavzusidagi tadqiqotida qo'shma gaplar qurilishida dialogik diskurs va uning ahamiyatiga alohida to'xtaladi⁹.

Shuningdek, tilshunos olim Sh.Safarovning "Kognitiv tilshunoslik"¹⁰, D.Xudoyberganovanning "Matnning antroposentrik tadqiqi"¹¹, A.Pardayevning "Diskurs. Nutqiy muloqot tizimi birliklari"¹², O.Ablakulovanning "Diskurs tushunchasi va uning tadqiqi"¹³, M.Hakimovning "O'zbek pragmalingsvistikasining asoslari"¹⁴, S.Boymirzayevanning "O'zbek tilida matnning kommunikativ pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar"¹⁵, M.Qurbonova "O'zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari"¹⁶, M.Xolmurodovanning "Erkin A'zam qissalarining sotsiopragmatik aspekti"¹⁷, G.Toirovning "Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari"¹⁸, X.Yo'ldoshevaning "Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi"¹⁹, M.Yuldoshevaning "Xushmuomalalik nazariyasining sotsiopragmatik tadqiqi (sotsiopragmatika)"²⁰ kabi ilmiy ishlari va bir qator adabiyotlarda ham diskurs hamda sotsiopragmatikaga oid tushunchalar o'zbek tili tabiatidan kelib chiqib asoslangan. Bu tadqiqotlar, asosan, diskurs va uning mohiyatini ochib bergan, ammo ular orasida lirik dirkursga oid mulohazalar deyarli uchramaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" (2022-2026 y.y.) mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

⁷ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 320 б.

⁸ Safarov Sh. Nutq lingvistikasining tekshiruv obyekti nimadan iborat // "Nutq lingvistikasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2006. – B. 4.

⁹ Raupova L. Diskursiv tahlilda polipredikativ birliklar. – Toshkent: Manisa, 2022. – 205 b.

¹⁰ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91 б.

¹¹ Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2007. – 136 б.

¹² Pardayev A. Pragmatik lingvistika. – Samarqand, 2013. – 104 b.

¹³ Ablakulova O. Diskurs tushunchasi va uning tadqiqi// Impact Factor Scientific Journal, 2021. – P. 1167-1171.

¹⁴ Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари.– Тошкент: Академнашр, 2013. – 176 б.

¹⁵ Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол фан. док... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. –49 б.

¹⁶ Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол фан. док... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. –238 б.

¹⁷ Холмуродова М. Эркин Аъзам қиссаларининг социопрагматик аспекти: Филол фан. док. (PhD)... дисс. – Андижон, 2021. –132 б.

¹⁸ Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, 2007. –38 б.

¹⁹ Yo'ldosheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. dok... diss. avtoref. – Qarshi, 2023.– 30 б.

²⁰ Yuldosheva M. Xushmuomalalik nazariyasining sotsiopragmatik tadqiqi (Sotsiopragmatika). – Namangan, 2025.– 149 b.

Tadqiqotning maqsadi lirik diskurs xususiyatlarini badiiy asarlardan olingan misollar asosida sotsiopragmatik hamda kognitiv aspektda ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon va o'zbek tilshunosligida diskurs va lirik diskursning tadqiqiga doir ishlarni tavsiflash va tasniflash;

lirik diskurs tushunchasiga kognitiv-pragmatik va sotsiopragmatik nuqtayi nazardan munosabat bildirish;

lirik diskurs tarkibini lirik matnlar asosida fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, semantik-stilistik, milliy-mental xususiyatlari jihatidan tahlil etish;

lirik diskursning lingvistik aspekti, uning lirik matn bilan o'zaro bog'liqligi hamda nutqiy voqelanishi yordamchi so'z turkumlari, taqlid, modal va undov so'zlarning sotsiopragmatik xususiyatlari asosida ilmiy-amaliy jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida lirik diskursda qo'llanilgan nutqiy birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini lirik diskursda qo'llanilgan nutqiy birliklarning leksik-semantik, grammatik va milliy-mental xususiyatlari hamda lirik matnlardagi verbal/noverbal vositalar, yordamchi, taqlid va modal birliklar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari tavsiflash, tasniflash, kuzatish, analiz va sintez, taqqoslash, komponent tahlil usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tilshunoslikda lirik diskurs va uning sotsiopragmatik talqinining ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari ishlab chiqilib, lirik matn va lirik diskursning pragmatik hamda kognitiv xususiyatlari, lirik diskurs tarkibiy birliklarining fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va semantik-stilistik xususiyatlari hamda ularning sotsiopragmatik funksiyalari aniqlangan;

o'zbek lirik matnlarining muayyan ijtimoiy-madaniy kontekstdagi pragmatik funksiyalari, ularning diskursiv samaradorlikni ta'minlashdagi o'rni, kommunikativ ta'sir doirasi hamda ijtimoiy-kommunikativ ma'nolarni shakllantirishdagi sotsiopragmatik qonuniyatlari, lirik matn va lirik diskursning o'zaro munosabati funksionallik – strukturaviylik, dinamik – statik hamda aktuallik – virtuallik mezonlari asosida tavsiflanib, diskursiv omillar va kommunikativ strategiyalarning voqelanishidagi metodologik ahamiyati dalillangan;

lirik diskursning lingvistik tabiati, uning lirik matn bilan o'zaro bog'liqligi hamda nutqiy voqelanish mexanizmlari, Usmon Azim va Muhammad Yusuf she'riyati misolida yordamchi so'z turkumlari, taqlid, modal va undov so'zlarning lingvopragmatik hamda lingvokulturologik xususiyatlari, ularning estetik-ekspressiv va kommunikativ-pragmatik funksiyalari isbotlangan;

lirik diskurs tushunchasi kognitiv-pragmatik va sotsiopragmatik yondashuvlar asosida integrativ lingvistik kategoriya sifatida, uning konseptual-parametrik belgilari, Usmon Azim va Muhammad Yusuf she'riyati misolida lirik diskursda qo'llanilgan verbal hamda noverbal vositalarning sotsiopragmatik xususiyatlari,

ularning kommunikativ-pragmatik funksiyalari va adresant – adresat munosabatlarini shakllantirishdagi diskursiv-pragmatik mexanizmlarning o‘rni asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

lirik diskurs va uning sotsiopragmatik talqiniga oid ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosalar badiiy diskursni pragmalingsvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvopoetika hamda matn tilshunosligi yo‘nalishlarida tadqiq etish metodologiyasini takomillashtirishga xizmat qilishi asoslangan;

Usmon Azim va Muhammad Yusuf she‘riyati misolida lirik diskursning kognitiv-pragmatik va sotsiopragmatik xususiyatlari, verbal hamda noverbal vositalarning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlari aniqlanib, ularni badiiy matnni lingvistik tahlil qilish, maxsus kurslar va o‘quv-metodik manbalarni yaratishda qo‘llash imkoniyatlari belgilangan;

lirik diskursning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi pragmatik funksiyalari, adresant – adresat munosabatlarini shakllantiruvchi diskursiv omillar va kommunikativ strategiyalarni tahlil qilish asosida o‘zbek lirik matnlarining sotsiopragmatik talqiniga oid ilmiy xulosalardan badiiy matnlarni lingvistik ekspertiza qilish, filologik tahlil etish hamda o‘zbek tilshunosligida diskurs tadqiqotlarini rivojlantirishda foydalanish mumkinligi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi lirik diskurs va uning sotsiopragmatik talqinini amalga oshirishda, lirik diskursning poetik matndagi o‘rnini tahlilga tortishda, nazariy ma‘lumotlarni bayon etishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, ishda Usmon Azim va Muhammad Yusuf asarlaridan olingan misollar asosida tahlilga tortilgan faktik materiallar zamonaviy metodlarga ko‘ra tasnif qilinib, lingvistikaning eng so‘nggi ilmiy yutuqlaridan foydalangan holda talqin qilinganligi, dissertatsiya ishi bo‘yicha ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilganligi, taklif, tavsiya va xulosalar asosida olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy tilshunoslik taraqqiyoti, lirik diskurs, sotsiopragmatika hamda muayyan ijodkor asarlari badiiyati masalasiga doir mavjud nazariy mulohazalarni yangi bilimlar bilan to‘ldirishga xizmat qilishi; lirik matnlarni yaratishda ijodkor niyatining ifodalanishi; uning obraz hamda g‘oyalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq badiiy mahoratini aniqlashda nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati lirik matnlarni o‘rganish muammolari tahliliga oid materiallardan oliy o‘quv yurtlarining filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi “Matn lingvistikasi”, “Pragmalingsvistika”, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanlariga oid darslik hamda qo‘llanmalar yaratish, Usmon Azim va Muhammad Yusuf lirik diskursi, badiiy merosi masalalariga oid maxsus kurs va seminarlarni tashkil qilishda samarador manba bo‘la olishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Lirik diskurs va uning sotsiopragmatik talqinini Usmon Azim va Muhammad Yusuf asarlari misolida o‘rganish yuzasidan olingan natijalar asosida:

tilshunoslikda lirik diskurs va uning sotsiopragmatik talqinining ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari ishlab chiqilib, lirik matn va lirik diskursning pragmatik hamda kognitiv xususiyatlari, lirik diskurs tarkibiy birliklarining fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va semantik-stilistik xususiyatlari hamda ularning sotsiopragmatik funksiyalariga oid xulosa va natijalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida II3-2020042022 "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish" nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 19-iyundagi 01/04-2624-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur amaliy loyihaning o'zbek tilidagi lirik diskurs bilan bog'liq jihati ilmiy-nazariy fikr va ma'lumotlar bilan to'ldirilgan. Shuningdek, lirik matn va lirik diskurs xususiyatlarining pragmatik hamda kognitiv aspektlardagi tadqiqi o'zbek tili lingvodidaktikasi uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi dalillangan;

o'zbek lirik matnlarining muayyan ijtimoiy-madaniy kontekstdagi pragmatik funksiyalari, ularning diskursiv samaradorlikni ta'minlashdagi o'rni, kommunikativ ta'sir doirasi hamda ijtimoiy-kommunikativ ma'nolarni shakllantirishdagi sotsiopragmatik qonuniyatlari, lirik matn va lirik diskursning o'zaro munosabati funksionallik – strukturaviylik, dinamik – statik hamda aktuallik – virtuallik mezonlari asosidagi xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2022-2024-yillarda bajarilgan IJI-402104209 "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" nomli innovatsion loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 30-iyundagi 01/01-2826-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratishda Usmon Azim va Muhammad Yusuf she'rlari asosidagi lirik diskursning kompleks tahlili bilan bog'liq ilmiy-amaliy xulosalar muhim xomashyo vazifasini bajargan;

lirik diskursning lingvistik tabiati, uning lirik matn bilan o'zaro bog'liqligi hamda nutqiy voqelanish mexanizmlari, Usmon Azim va Muhammad Yusuf she'riyati misolida yordamchi so'z turkumlari, taqlid, modal va undov so'zlarning lingvopragmatik hamda lingvokulturologik xususiyatlari, ularning estetik-ekspressiv va kommunikativ-pragmatik funksiyalariga oid xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi IL – 21091433 raqamli "O'zbek realiyalariga oid maqolalar bazasi platformasini yaratish (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida)" loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 29-oktabrdagi 01-7719-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur loyihaning o'zbek tilidagi lirik diskurs bilan bog'liq jihati ilmiy-nazariy fikr va ma'lumotlar bilan to'ldirilgan;

lirik diskurs tushunchasi kognitiv-pragmatik va sotsiopragmatik yondashuvlar asosida integrativ lingvistik kategoriya sifatida, uning konseptual-parametrik belgilari, Usmon Azim va Muhammad Yusuf she'riyati misolida lirik diskursda qo'llanilgan verbal hamda noverbal vositalarning sotsiopragmatik xususiyatlari, ularning kommunikativ-pragmatik funksiyalari va adresant – adresat

munosabatlarini shakllantirishdagi diskursiv-pragmatik mexanizmlaridan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasiga qarashli "Navoiy" telekanalida efirga uzatilgan "Adabiyot va hayot" ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Navoiy teleradiokompaniyasining 2025-yil 5-martdagi 01-04/22-son ma'lumotnomasi). Natijada lirik diskurs tabiati Usmon Azim va Muhammad Yusuf poetik nutqi misolida asoslangan hamda teletomoshabinlar, yosh olimlarning dunyoqarashi, tafakkuri, bilim darajasini kengaytirib, teleko'rsatuvlar ilmiy-ommabopligi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 2 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy maqola nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, ishning umumiy hajmi 118 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Diskursning lingvopragmatik tadqiqi: lirik asarlar matnining sotsial xususiyatlari"** deb nomlangan va u tarkiban uch fasldan iborat. Bobning "Diskurs va uning tahlil obyekti xususida" nomli birinchi faslida "diskurs" atamasi hamda uning mazmun ko'lami, tahlil obyekti xususidagi mulohazalar yoritilgan. Diskurs hamda diskursiv tahlil nafaqat tilshunoslikning, balki adabiyot, sun'iy intellekt, huquq, falsafa, mantiq, psixologiya, kompyuter tilshunosligi, neyrolingvistikaning ham tadqiqot obyektlaridan biri sanaladi.

Mavzu doirasida A.A.Kibrik, N.D.Arutyunova, V.E.Chernyavskiy, Y.S.Stepanov, V.Z.Demyankov, H.Haberland, M.Fuko kabi olimlarning tadqiqotlariga murojaat etilgan. Kibrik mulohazalariga tayangan holda "diskurs va matn uzviy butunlikni tashkil etadi, ammo diskursni bitta tushunchani ifodalaydigan birliklar qatoriga qo'shib bo'lmaydi" degan xulosaga kelingan. Shu o'rinda diskurs va matn orasidagi bog'liqlik hamda ularni farqlovchi belgilar tahlilga tortilgan.

“Matn” va “diskurs” hodisalarini farqlashda funksionallik-strukturaviylik, dinamik-statik, aktuallik-vertuallik kabi qarama-qarshiliklardan foydalanib kelinmoqda. Dastlab tilshunoslikda matn faqat ma’lum bir grammatik formal vositalar hamda mazmunan bog‘liqlik asosida shakllanadi, degan qarashlar bo‘lgan. Bu esa, bevosita matnni faqat struktur jihatdan tahlil etishga olib kelgan.

Matn – og‘zaki yoki yozma kechgan muloqot natijasi, diskurs esa, tug‘ilgan g‘oya, kommunikativ maqsad samarasi. Diskursning yuzaga kelishi va tinglovchi tomonidan qabul qilinishi ma’lum makon va zamon doirasida, aniq kommunikativ muhitda kechadi va unda axborot uzatish maqsadiga mos keladigan mazmun yaratiladi. Bu mazmun maydonida nutqiy faoliyat ishtirokchilari munosabati, ularning ijtimoiy mavqeyi, jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy normalarga mos kelish/kelmasligi, nutqiy sharoit, nutqiy vaziyat kabi qator birliklarni aks ettiruvchi axborotlar markazlashadi (Qarang: 1.1-jadval):

1.1-jadval

Diskurs va matnga xos xususiyatlar

diskursga xos xususiyatlar	matnga xos xususiyatlar
Og‘zaki va yozma nutq	Asosan, yozma shaklda
Bir yoki ikki kishining muloqot shakli	Monologik tuzilishda
Hajmi chegaralanmagan	Me’yoriy hajmga ega
Nutqiy faoliyatda yuzaga chiqadigan izchillik	So‘z va iboralarning sodda uyg‘unligi
Muloqotning og‘zaki bo‘lmagan komponentlari mavjudligi	Noverbal jihatlarning yo‘qligi

Bobning “**Diskursologiyada diskurs va lirik diskurs masalasi**” deb nomlangan ikkinchi faslida dunyo lingvistikasida diskursga har qanday og‘zaki yoki yozma ko‘rinishdagi matn sifatida emas, balki psixologik, ijtimoiy-madaniy, sotsiopragmatik omillar bilan uzviy bog‘langan insonlarning o‘zaro ta’siri va ularning kognitiv jarayonlarida ishtirok etadigan birlik sifatida qaralishiga e’tibor berilgan. Mazkur faslda Z.Xarres, T. van Deyk, V.Krasnix, B.Johnston, A.Kibrik, A.Xurmatullin, R.Bart, R.Rorty singari olimlarning nazariy qarashlaridan foydalanilgan.

Diskursiv tahlil bo‘yicha hozirgacha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar mohiyatan umumlashtirilgan va quyidagicha guruhlangan:

tilshunoslikning ko‘pparadigmali metodologiyasi asosidagi tahlillar;

muallif nutqi tahlili, nutqning **spontan** (real vaqtda yuzaga chiqadigan, tayyorgarliksiz sodir bo‘ladigan muloqot shakli) turlariga oid diskursiv tadqiqotlar;

matn va diskurs bog‘liqligi tamoyillarini ishlab chiqish, vazifalarini aniqlash uchun nutqni muhim makroelementlarga bo‘lishga oid izlanishlar.

Shuningdek, mazkur faslda lirik diskurs va uning mohiyati haqida ham fikr yuritiladi. *Lirik diskurs* – uning ishtirokchilari, ya’ni so‘zlovchi, tinglovchi yoxud yozuvchi va o‘quvchi o‘rtasida yuz beradigan lingvistik kommunikatsiyadir. Ba’zan diskursga og‘zaki muloqot vositasi, yozma nutqqa esa, matn sifatida qaraladi. Qayd etish joizki, matn yozma yoki og‘zaki, kichik yoki katta bo‘lishidan

qat'i nazar, diskursdan tarkib topadi. Lirik diskurs har bir qalam sohibining o'ziga xos uslubi, poetik mahorati, poetik obraz va ifodada betakrorligini namoyon qiladi. Buni Usmon Azim she'riyati misolida yaqqol ko'rish mumkin. Usmon Azim "Yurak" to'plamidagi "Dunyoda boshlanar ish" deb boshlanuvchi she'rida dunyoni o'z tasavvur olami bilan ta'riflab, unda yolg'izlik inson uchun so'nggi qismat ekanligini ta'kidlaydi:

*Nima uchun – so'rama,
Qo'shig'imda nolish bor...
Bul dunyoning tubida
Yolg'izgina qolish bor...*

She'rda bevosita lirik qahramonning ichki kechinmalari perlokutiv aktda murojaat strategiyasi orqali namoyon bo'ladi. "Nima uchun so'rama" murojaati vositasida lirik qahramon o'z holatini tushuntirishdan bosh tortadi. Zero, bu ichki iztirob chuqurligini, so'zda ifodalab bo'lmaydigan ruhiy holatni namoyon qiladi, shuningdek, "Bu dunyoning tubida" metaforik iborasi o'quvchi (kitobxon) ko'z o'ngida jamiyatdan anchayin uzilgan inson qiyofasini gavdalantiradi.

Lirik matnda til vositalari individuallashadi, ya'ni muallifning har bir obrazida, badiiy ifodasida uning shaxsiy "men"ligi markaziy pozitsiyani egallayveradi, ijodkor har bir vositadan o'z uslubi doirasida foydalanadi. Ayni damda til vositalarining ta'sirchan va serqirra imkoniyatlari namoyon bo'laveradi. Hissiyot va aql qorishiligi holatida muallif lirik diskursda o'z niyati, fikrlarini o'quvchiga individual tarzda "yuqtiradi".

Bobning "**Lirik matn lirik diskursning tadqiq obyekti sifatida**" deb nomlanuvchi uchinchi faslida nutqiy akt, lirik diskursning funksiyalari izohlangan. Estetik funksiya ifodalaydigan lirik diskursning boshqa nutq turlaridan birmuncha farqli jihatlari mavjud. Bir tomondan, lirik diskursda so'zlovchi nomidan ko'ra uning hissiyotlari, hayotiy kechinmalari, ijtimoiy, psixologik hamda falsafiy muammolari muhim. Xususan, lirik matnni badiiy material sifatida nazarda tutsak, unda bu materialning matnda muayyanlashuvi, uning tuzilishini hosil qilishi va metodlari, kayfiyati, mohiyati, maqsadi, mazmuni va materialning tahlili, qiymatlanishi, anglanishi, talqini badiiy diskursning mohiyatida konkretlashadi. Har qanday lirik asarning asosida konsept – muallif niyati sifatida psixologik kategoriya timsoli bo'lgan matnning semantik strukturasiga tayanadi. Konsept fundamental bo'lish bilan birga intuitiv va g'ayrushuriy bo'ladi, muallif tomonidan yaratilish jarayonida yuzaga chiqadi. Jumladan,

Bellarida belbog'i bor
*O'g'lonlarining,
Cho'poni ham, sultoni ham
Polvon o'lkadir.*

Mazkur parchada *mardlik*, *g'urur*, *vatanparvarlik* konsepti asosida ijodkor niyati illokutiv va perlokutiv aktlarda namoyon bo'lgan. Ijodkor o'zbekona qadriyatlarni tasvirlash barobarida yurt yigitlarining cho'pon yoki sulton bo'lishidan qat'i nazar qadr-qimmatini uchun kurashga shay ekanligini ta'kidlaydi. Vatan – mardlar uchun or, g'urur degan strategiya ilgari suriladi.

Umuman olganda, lirik diskursning o‘z xarakteristikasi ham mavjudki, u cheksiz, ochiq, muayyan zamon va makon bilan bog‘liq, tarmoqlarga bo‘lingan. Ularning har biri muallif tafakkurida chizilgan o‘ziga xos olamning poetik manzaralaridir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Lirik diskursda sotsiopragmatik xususiyatlarning badiiy ifodasi”** tarzida sarlavhalangan va u uch fasldan iborat. Bobning dastlabki faslida **“Lirik diskursda uslub hamda ritorik vositalarning o‘rni”** va ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlilga tortilgan. Ijodkor o‘quvchi shuuriga ta’sir ko‘rsatish hamda o‘z auditoriyasiga ega bo‘lish uchun turli lingvistik vositalarga murojaat qiladi. Mazkur vositalarning eng muhimi esa, muallif uslubi hamda uni ifodalovchi ritorik birliklardir. Muallif ba’zan g‘ayrioddiy so‘zlar kombinatsiyasini yaratadiki, bunda shoir so‘zning asl ma’nosidan boshqa metaforik o‘xshatishlarni o‘quvchi dunyoqarashiga singdiradi hamda o‘z tasavvuri doirasida olamni ko‘rishga undaydi. Jumladan, ko‘chimlar vositasida muallif olam manzarasini obrazli ifodalaydi.

She’riyat bu qadim buyuk

So‘qmoq ekan,

Kiyikso‘qmoq ekan, kiyik

so‘qmoq ekan.

Shirin azob ekan, jonni

Yoqmoq ekan

Bir qo‘lda gul, bir qo‘lingda

chaqmoq ekan...

Muhammad Yusuf she’riyatning ulug‘ yo‘l ekanligini tasvirlash uchun uni *so‘qmoqqa* qiyoslaydi. Ha, bu yo‘l kamqatnov bo‘lsa-da, qadim va buyuk. Uning buyukligi shundaki, har kim ham bu *so‘qmoqdan* o‘ta olmaydi. O‘tish qiyinligini metaforalar vositasida ifodalaydi, ammo *“kiyik so‘qmoq”* degan birikma ijodkor metaforik olamining kengligidan dalolat beradi, she’riyat *so‘qmog‘i* shu qadar nozik va nafiski, undan ehtiyot bo‘lib o‘tmoq lozim. Chunki kiyiklar hech kim chiqqa olmaydigan yuksakliklarga ko‘tariladi. Sotsiopragmatik jihatdan esa shoirning so‘z qo‘llashdagi individualligi, ijod yo‘lidagi har bir holatni tildagi ifoda imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalana olishi, ayniqsa lirik diskursda ijodkorning ijtimoiy maqomi ifodasi *shirin azob, jonni yoqmoq, gul, chaqmoq* metaforalari bilan ham mohirona tasvirlangan.

G‘ayrati bisyor yigit,

Gunohga hushyor yigit,

Xafa bo‘lma, o‘ksima,

Imon ham bir dor, yigit.

Imon ham bir dor, yigit.

Usmon Azimning *“Sarbadorlar qo‘shig‘i”* she’rida xalqimiz tarixida zulmga qarshi adolat bayrog‘ini ko‘targan vatanparvar insonlar – sarbadorlarning mag‘rur ovozi, siymosi hamda unutilmas jasorati aks ettirilgan. *Dor* so‘zining leksik ma’nosi *“o‘limga hukm qilingan kishini osib o‘ldirish uchun yasalgan maxsus qurilma”*. *“Imon ham bir dor, yigit”* deyilganda *dor* metaforik ma’noda va bu jumlada *imon insonning gunohini o‘ldiradi* pragmatik ma’nosi mujassam. O‘zbek

jamiyatida imon, e'tiqod tushunchalari qadrlanishi sabab imoni kuchli inson gunohga yo'l qo'ymaydi degan strategiyani o'quvchiga obrazli tarzda yetkazishga xizmat qilgan.

Metonimiya: Bilet topilmaydi "O'tkan kunlar"ga

Qizlar qaytib kelar ko'zyosh qilishib.

Xayr, uyqu, deyman-u menda yo'q orom,

Muqovasiz kitobimga muk tushib.

Muhammad Yusufning "Kinoga kirmayman" she'ridagi "O'tkan kunlar" birikmasi Qodiriyning shu nomdagi asari asosida suratga olingan filmni anglatadi. "Xabar" nutqiy akti asosida mazkur asarning inson ma'naviy kamolotida tutgan o'rni va qiymati yuqori ekanligi ta'kidlangan. Lirik qahramon biletsiz qolgan qizlar hasratini tasvirlaydi, ammo bu holat ijodkor uchun sira muammo emasligini, balki muqovasiz, eski bo'lsa-da, kitobning o'zini o'qish yuksak zavq berishini badiiy mahorat bilan tasvirlaydi.

Shu bilan birga mazkur faslda lirik diskursdagi epitet, sinekdoxa, giperbola, ironiya kabi tasvir vositalari ham atroflicha tahlil etilgan.

Bobning keyingi fasli "**Usmon Azim lirik diskursidagi ayrim verbal birliklarning pragmatik xususiyatlari**" deb ataladi. Ma'lumki, har bir lisoniy birlik ishlatilish o'rni, vazifasi hamda tuzilishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Til vositalari, ularning fonetik, leksik hamda grammatik imkoniyatlari she'riy matnlardagi nutqiy vaziyat, sharoit, maqsad, anglash darajasini ifodalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bunda ijodkor lisoniy birliklarning turli uslubiy jihatlarini inobatga oladi.

Lisoniy birliklar vositasida tinglovchiga axborot yetkazuvchi inson bevosita tilning taraqqiyotiga ham o'z hissasini qo'shadi. So'nggi yillarda semantikadan alohida yo'nalish sifatida ajralib chiqayotgan pragmatika ham lisoniy birliklar hamda ularning ifoda shakli o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etib kelmoqda.

Nutqda tovush hamda ohangni ma'lum illokutiv maqsad orqali qo'llash nutq muallifi munosabati ifodalanishining fonopragmatik tahlil obyekti hisoblanadi. Leksema semasida pragmatik semani hosil qilishda til birliklari tarkibidagi fonetik o'zgarishlar muhim vazifa bajaradi. Fonetik hodisalar orqali pragmatik sema ifodalanishiga tovush o'zgarishi, tovush tushirilishi, tovush almashinishi, tovush orttirilishi, tovush ikkilanishi bilan hosil qilinadigan pragmatik munosabatlarni misol qilishimiz mumkin.

Alliteratsiya so'z yoki jumla boshida, o'rtasida musiqiylik hamda ohangdorlikni ta'minlash, fikrni ta'kidlash maqsadida tovushlar uyg'unligidan foydalanishdir. Masalan,

Yetmish yulduz yog'ilib,

Yarim oycha to'lolmas,

Yetti yanga bir bo'lib,

Bitta ona bo'lolmas.

Lirik diskurs jarayonida ijodkor o'z niyatini ochiq ifodalash, ta'sirchanlikni oshirish uchun fonetik birliklar bilan bir qatorda leksik birliklardan ham unumli foydalanadi. Bunday birliklar qatoriga sinonim, antonimlarni kiritish ham o'rinli.

Leksemalarning nutqdagi normal hamda anormal munosabati vazifasiga ko‘ra, emotsional hamda neytral pragmatik maydonda umumlashadi. Bu jarayon, ayniqsa, badiiy matn lirik diskursida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Meni seving,

Mendan nafratlaning –

Boshqasiga ruxsat bermayman.

Men sizni sevaman

Va nafratlanaman,

Mayda tuyg‘ularni ko‘rmayman ravo.

She‘r yozaman – sevgi,

She‘r yozaman – nafrat.

Mazkur parchada lirik qahramonning ishqqa, oshiqlikka munosabati, badiiy qarashi *sevgi – nafrat*, *sevaman – nafratlanaman* *sevish – nafratlanish* kabi antonimik birliklar vositasida inson qalbidagi ikki kuchli emotsional tuyg‘uni yonma-yon va takror qo‘llash bilan *sevgi* yoki *nafratdan* boshqa barcha tuyg‘ularning bekorligini, ular orasidagi mayda hislar aslida ikkiyuzlamachilik ekanini uqtirishdek pragmatik niyatni ko‘zlagan.

Bobning uchinchi fasli **“Muhammad Yusuf lirik diskursidagi noverbal vositalar pragmatikasi”** deb ataladi. Unda lirik diskursda noverbal vositalardan foydalanishning pragmatik jihatlari tahlil etilgan. Ma’lumki, lirik diskursda verbal hamda noverbal vositalar nutqiy muloqot jarayonida lingvokulturologik, sotsiolingvistik hamda pragmatik jihatdan muhim vazifa bajaradi.

Muloqot jarayonida inson ichki ruhiy holatini, ya’ni his-tuyg‘ularini ifodalashda ovoz, yuz hamda tana harakatlaridan foydalanadi. Verbal vositalar lirik diskursda asosiy o‘rinni egallasa-da, noverbal vositalar ongosti signallari orqali dastlabki axborotni yetkazuvchi birliklar sifatida xizmat qiladi. Bunda, avvalo, muallifning ijodiy niyati markaz vazifasini bajaradi:

Qizlarda qirqta jon bor, qirq bitta firib,

Qulday sarg‘aytirib joningni olar.

Tunda to‘ydan topib ko‘z urushtirib,

Kunduz torko‘chada tanimay qolar. (M.Yusuf)

Mazkur lirik diskursda qizlarga xos sho‘xlik, ayyorlik akti ifodalangan. *Ko‘z urushtirish* harakati orqali qizlarning yigitlarni o‘ziga qaratish uchun qilgan ayyorliklari, ya’ni o‘ziga xos kommunikativ strategiya yuzaga chiqqan.

Ba’zi holatlarda lirik diskursda poetik tasvir verbal vositalarga qaraganda noverbal vositalar orqali aniqroq reallashadi. Buni Muhammad Yusufning “Osmonning oxiri” lirik dostonida qo‘llanilgan noverbal vositalar tahlili orqali ham kuzatish mumkin:

Osmonning oxiri qayerda, deyman unga jiddiy. U, hech narsani tushunmadim, degandek yelka qisadi?..

Ushbu parchada ijodkorning pragmatik niyati ham verbal, ham noverbal vositalar uyg‘unligida namoyon bo‘lgan. Lirik matnda hodisa shoir tilidan bayon etilgan va bunda adresat, albatta, o‘quvchi hisoblanadi. O‘quvchi ijodkor nutqidagi jarayonda to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirok etmaydi, balki muallif dunyoqarashi, poetik

maqsadi mahsuli bo'lgan tasvirni – lirik qahramonning ichki ruhiy holati, emotsional vaziyatni chetdan his etadi.

Lirik diskursda tilning barcha vazifalari, jumladan, ta'sir hamda estetik funksiyalari ma'lum darajada namoyon bo'ladi. Emotsional-estetik funksiyalarning til xususiyatlari yozma hamda og'zaki nutqda bir-biridan farqli shaklda reallashadi. Bundan anglashinadiki, tildagi ifodani ham yozma, ham og'zaki nutqda tahlil etish birday muhim jarayon hisoblanadi. Jumladan, *“Mening iste'dodli shoir do'stim nihoyat bir qizni sevib qoldi. Biz bugun birga kinoga boramiz. Men bo'lajak kelinning dugonasini zeriktirmasligim kerak.*

Salomlashamiz. Ya'ni mana bunday: ular mening hali qurib ulgurmagan yaltiroq bo'yinbog'imga qarab jilmayib qo'yishadi.

Bu – qalaysiz, degani”.

Yuqoridagi matnda lirik qahramon nutqiy muloqoti noverbal vosita orqali boyitilgan: jilmayish harakati – “Bu – qalaysiz” degan ma'noni ifodalashga xizmat qilgan. Mazkur jarayonda adresat hamda adresantning bir-biriga munosabati aks etadi. E'tiborli jihati shundaki, ijodkor lisoniy shaxs kechinmalarini tasvirlashda nafaqat so'z va iboralarni noverbal vosita sifatida qo'llagan, balki jumla oxirida tinish belgilari (ko'p nuqta, tinish belgilarini qo'sh holda qo'llash) bilan ham kommunikativ maqsadni amalga aniqroq oshirganini ham ko'rish mumkin.

Ko'rinadiki, shoir insonga xos lirik kechinma, holat va ruhiyat, uning ahvoli hamda harakatlarini ifodalash uchun tana a'zolari harakati, ularning axborot uzatish xususiyati bilan bog'liq ekstralingvistik omillar, ya'ni noverbal vositalardan foydalanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Lirik matnlarda grammatik ma'noning nutqiy voqelanishi”** deb nomlangan, mazkur bob tarkiban uch fasldan iborat. Bobning dastlabki **“Lirik diskursda grammatik vositalarning o'rni va ahamiyati”** faslida Usmon Azim va Muhammad Yusuf asarlaridagi grammatik shakllarning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Lirik diskurs yaratish jarayonida ijodkor grammatik vositalardan foydalanar ekan, albatta, ma'lum bir pragmatik maqsadni ko'zlaydi. Pragmatika esa, keng tushuncha bo'lib, til sathlari jihatdan ierarxik qismlarga ajratiladi. Ya'ni matnga fonopragmatik, leksopragmatik, morfopragmatik hamda pragmasintaktik talqinda yondashiladi. Lirik diskursda qo'llaniladigan grammatik vositalarni bevosita morfopragmatik talqin asosida tahlil etishimiz mumkin. Bunda so'zlovchi munosabati, asosan, subyektiv baho shakllari orqali, ba'zan esa, so'z yasovchi hamda sintaktik shakl yasovchi grammatik vositalarni qo'llash orqali ifodalanadi. Masalan:

*Beshiklarga to'lib ketsin bir, o'zbeklar,
Tili chiqmay ko'zi chaqnar, hur o'zbeklar.
Davlatbeklar, E'tiqodbek, Iymonbeklar,
Bobojon, deb soqollaring silab tursin.*

Muhammad Yusufning “Tilak” she'rida mustaqil yurtning kelajagini yaratuvchi bo'lib dunyoga kelgan yosh avlod hur vatanda yashab ulg'aysin degan duo akti aks etgan. Mazkur baytning uchinchi misrasida qo'llanilgan shaxs nomlari orqali ifodalangan hissiy ta'sirchan bo'yoqdorlik ijodkor ko'zda tutgan niyatni

